

**“INSULT KASALLIGI” UNING ETIOLOGIYASI, EPIDIMIOLOGIYASI,  
KLINIK KECHISHI VA DAVOLASHNING ZAMONAVIY USULLARI**

*Jumanazarova Sabrina Sunat qizi*

*Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti*

*2-son Davolash ishi fakulteti*

*1-kurs 125-B gurux talabasi*

**Annotatsiya:** Insult - bu miya to'qimalarining qon bilan ta'minlanishi keskin buzilishi natijasida paydo bo'ladigan neyroaskulyar sindrom bo'lib, to'satdan yuzaga keladigan lokal yoki global nevrologik simptomlar bilan kechadi. Patogenezi nuqtai nazaridan insult - bu organizmdagi eng nozik va murakkab tuzilmalardan biri bo'lgan markaziy asab tizimi (MAT)ning qon bilan ta'minlanishidagi disfunktsiyani aks ettiruvchi holatdir. Ushbu kasallik klinik nevrologiyaning asosiy mavzularidan biri bo'lib, yurak-qon tomir tizimi va asab tizimining uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Insult - bu bosh miya qon aylanishining to'satdan buzilishi bo'lib, neyronlarning ishemiyasi yoki gemorragiyasi tufayli yuzaga keladi. U markaziy asab tizimi patologiyasining o'ta og'ir shakli hisoblanadi. Kasallikning patogenezi, klinik kechishi va anatomik joylashuvi bir-biri bilan bevosita bog'liq.

**Kalit so‘zlar:**

Insult

Ishemik insult

Gemorragik insult

Miya infarkti

Neyrovaskulyar sindrom

Miya qon aylanishi

Tromb

Emboliya

MRT (magnit-rezonans tomografiya)

KT (kompyuter tomografiya)

Miya qon ketishi

Arterial gipertoniya

Falajlik

Davolash usullari

Insult profilaktikasi

## **Kirish**

Insult (lotincha: insulto — zarba, hujum qilmoq) — bosh miyada qon aylanishning to'satdan buzilib, miya to'qimasining zararlanishi va funksiyasining izdan chiqishi; miyaga qon quyilishi. Gipertoniya kasalligi, miya tomirlari aterosklerozi, anevrizma, vaskulit va boshqa bir qancha kasalliklar insultga sabab bo'la oladi.

Insult - bu miyada qon aylanishining o'tkir buzilishi bo'lib, yurak-qon tomir kasalliklari va saraton kasalligidan keyin o'limning uchinchi sababi hisoblanadi.

### **Asosiy qism**

#### **Insult kasalligi turlari**

**Gemorragik va ishemik insultlar farq qilinadi.** Gemorragik insult yoki apopleksiyada miyaga qon quyiladi. Garchi insult ko'pchilik odamlarda to'satdan paydo bo'lsada, biroq kasallik nishonasi oldindan seziladi. Masalan, gipertoniya kasalligi va aterosklerozda miyaga to'satdan, ko'pincha kishi hayajonlanganda qon quyiladi. Ba'zan bosh g'uvillaydi, og'riydi, aylanadi, boshda og'irlik seziladi. Qon quyilishi (gemorragiya) miya to'qimasini yemirib, tegishli funksiyalarini buzadi; kishi hushdan ketib, qusadi, yuzi qizaradi, tez-tez chuqur, ko'pincha xirillab nafas oladi, pulsi tarang va siyraklashgan bo'ladi, harorati ko'tariladi, siyidik va najasi kelmay qoladi yoki beixtiyor chiqib ketadi. Hayot uchun xavfli bu holat 1—3 kun davom etib, keyin bemor hushiga keladi va miyaning biror sohasi zararlanganligini ko'rsatuvchi belgilar yuzaga chiqadi; ko'pincha gavdaning o'ng yoki chap qismi falaj bo'ladi (gemiplegiya), bemor tildan qoladi yoki tuzuk gapira olmaydi. Bir necha oydan keyin falaj deyarli barham topishi, bemor yana tilga kirishi mumkin.

**Ishemik insult** miya tomirlarining trombozi natijasida paydo bo'ladi, bu miya to'qimasining yumshashi — miya infarktiga sabab bo'ladi. Bosh og'rishi, aylanishi kabi dastlabki belgilar paydo bo'lgandan keyin bemor hushdan ketmay, qo'l yoki oyoq uvishadi, so'ngra parez yoki falaj bo'ladi, sezish qobiliyati yo'qoladi yoki pasayadi, nutq buziladi. Bemorning rangi o'chgan, ko'z qorachiqlari tor, pulsi zaif, ammo harorati normal bo'ladi. Buzilgan funksiyalar bir necha oyda asliga kelishi mumkin.

Emboliyaga aloqador insultda miyada qon aylanishi to'satdan (ba'zan jismoniy zo'riqishdan) buziladi. Emboliyadan oldin kishining umumiy ahvoli og'irlashadi: darmoni quriydi, halloslaydi, yuragi "o'ynaydi", harorati ko'tariladi. Miya to'qimasi qonsizlanganligi tufayli qo'l-oyoq falaj bo'ladi, sezmaydi, ba'zan nutq buziladi. Buzilgan funksiyalar 1—3 oy ichida (ba'zan to'la) tiklanishi mumkin. Insultning dastlabki belgilari paydo bo'lganda darhol vrach chaqirish, bemorni tamomila tinch qo'yish kerak. Keyin u vrach maslahati bilan parvarish qilinadi.

**Ishemik insult (miya infarkti).** Bu eng ko'p uchraydigan turi bo'lib, u taxminan 80% holatlarni tashkil qiladi. Ushbu turdag'i insult miyaning muayyan hududida qon aylanishining keskin tanqisligi hisoblanadi.

**Gemorragik insult (miya ichidagi gematoma).** Bu miya muayyan qismining qon bilan jarohatlanishidir. Barcha holatlarning taxminan 10% ni tashkil qiladi.

**Subaraxnoidal qon ketishi.** Bu holat miya qon tomirlarining yorilishi natijasida rivojlanadi. Subaraxnoidal qon ketish barcha holatlarning taxminan 5% ni tashkil etadi.

Keng tarqalgan insult. Bu massiv insultlarni birlashtiradigan atama. Keng tarqalgan insult og’ir insult turiga xos bo’lib, umumiyligi miya alomatlari bilan namoyon bo’ladi.

**Lakunar insult.** Bu ishemik insultning bir turi. Ushbu turdagagi insult kichik arteriyalarning cheklanganligi bilan tavsiflanadi. Bu nom inyeksiya bu suyuqlik tarkibiga kiritilgan infarktli lakunalarda joylashganligi sababli berilgan. Statistik ma’lumotlarga ko’ra, lakunar insult ishemik insultning 20% ini tashkil etadi. Erkaklar va ayollar o’rtasida taxminan teng miqdorda kuzatiladi. Ko’pincha bu patologiya 48-75 yoshdagi shaxslarda tashxislanadi. Lakunar insultning eng keng tarqalgan sababi arterial gipertoniya fonidagi aterosklerozdir.

**Orqa miya insulti.** Bu insult turi orqa miyadagi qon aylanishining keskin tanqisligi hisoblanadi. Orqa miya insultining paydo bo’lishi sababi ko’pincha miyaning ishemik yoki gemorragik insulti hisoblanadi.

Insultning 5 foizi boshqa noma’lum sabablarga ko’ra rivojlanadi.

#### **Sabablari:**

Insult miyaga qon oqimining buzilishi yoki miya arteriyasining yorilishi tufayli yuzaga keladi. Insult sabablari quyidagilardan iborat:

Ortiqcha tana vazni

Bosh miya tomirlari trombozi

Bosh miya tomirlari aterosklerozi

Emboliya (trombning yorilishi)

Arteriyalarning zaif devorlari

Anevrizma

Arterial gipertenziya

Jarohat (bosh bilan kuchli zarba)

**Insultning sababi** — miya yarimsharlaridagi qon tomirlar tiqilishi va yorilishi natijasida kelib chiqqan miyaning muayyan hududidagi qon aylanishining buzilishidir. Ushbu tiqilishning sababi emboliya yoki tromboz bo’lishi mumkin. Miya arteriyasi yorilishi gipertoniya, tug’ma qon tomirlari nuqsonlari (zaif qon tomir devorlari), anevrizmalar, jiddiy jarohatlar sababli paydo bo’lishi mumkin.

**Insult rivojlanishi ehtimolini oshiradigan omillar quyidagilardir:**

Yosh. Odam qancha yoshi kattaroq bo’lsa, bosh miya insulti rivojlanish ehtimoli shunchalik baland. Qon tomirlarining holati yoshga qarab yomonlashadi va surunkali kasalliklar miya qon aylanishiga ta’sir qiladi va bu yosh bilan yanada og’irlashadi.

Ba’zi dorilarni qabul qilish. Ba’zi dorilar (uzoq muddat foydalanish) yurak kasalliklari rivojlanishi ehtimolini oshiradi. Estrogenlarni o’z ichiga olgan oral kontratseptivlar insult rivojlanish xavfini oshiradi.

Arteriyel gipertoniya. Ayniqsa kontratseptivlarni qabul qiluvchi yoki homilador ayollar ehtiyyot bo’lishi kerak.

Yomon odatlar, ayniqsa chekish. Spirtli ichimliklarni ortiqcha iste’mol qilish va chekish insult uchun muhim provokatsion omil hisoblanadi. Sigaret va spirtli ichimlik birgalikda yurak-qon tomir kasalliklarini rivojlanish ehtimolini sezilarli darajada oshiradi va bu o’z navbatida insultning yuzaga kelishiga yordam beradi.

Boshqa kasalliklar: qandli diabet, arterial gipertoniya, Fabri kasalligi, periferik tomirlar kasalligi, uyqu arteriyalarining stenozi, boshqa yurak-tomir kasalliklari.

**Insult belgilari va alomatlari****Patologyaning belgilari quyidagicha namoyon bo’ladi:**

To’satdan zaiflik, uyqusizlik, yuz mushaklarining falajlari (odatda tananing bir tomonida);

Nutqni yo’qotish;

Bir yoki har ikkala ko’zning ko’ra olish qobiliyati buzilishi;

Bosh aylanishi va o’tkir bosh og’rig’i;

Muvozanat yo’qolishi va yurishning keskin buzilishi.

Ushbu alomatlar yuzaga kelganda tezda tez yordam chaqirish kerak!

**Insultning eng ko’p uchraydigan alomatlari ikkita shartli guruhgaga bo’linadi:**

**Umumi miya simptomlari:** Bu miya yarimsharlari jarohatlanishi bilan bog’liq alomatlar. Ushbu alomatlarga bosh aylanishi, karaxtlik kabilalar kiradi.

**O’chog’ belgilari:** Bularga to’satdan parez, falajlik, shuningdek, ko’rishning buzilishi, ko’z qorachig’i joyining o’zgarishi, ishonchsiz nutq, harakatni muvofiqlashtimaslik, qo’zg’atuvchi bo’yin muskullari va boshqalar kiradi.

Kasallik belgilarini to’g’ri qabul qila olish juda muhimdir, chunki davolash faqatgina agar qon tomir jarohatidan keyin 3-6 soat o’tib boshlansagina ijobiy yakun topadi. Gemorragik insultning dastlabki belgilari miyada qon ketishi, ishemik insultniki esa miyada nekrotik hudud paydo bo’lishi bilan bog’liq. Ushbu belgilar instrumental diagnostika, xususan, KT, MRT va EEG yordamida aniqlanishi mumkin.

## **Tashxislash**

Insult eng muhim diagnostik tadqiqotlar, xususan kompyuter tomografiya (KT) va magnit-rezonans tomografiya (MRT) asosida tashxislanadi. Ko'p hollarda, kompyuter tomografiya yordamida mazkur patologiya va boshqa turdag'i «yangi» miya qon quyilishlarini farqlash mumkin.

MRT yordamida ishemiya maydonlarni aniqlash, shuningdek, ishemik miya zarari tarqalishini baholash mumkin. MRT gemorragik insultni ishemik turidan farqlash, shuningdek, ta'sir maydoni va uning kattaligi aniq o'rnni aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, MRT yordamida o'xshash alomatlar bo'lgan boshqa kasalliklarni istisno qilish mumkin.

Ishemik insultda ham bir qator, jumladan bo'yin va miya miya tomirlarining ultarovush tekshiruvi (UTT), exokardiyografiya, miya angiyografiyasi kabi qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazildi.

### **Insultni aniqlashni 3ta belgisi**

Jilmayish — insultda tabassum qiyshiq bo'lishi, lablarning bir burchagi yuqoriga emas, balki pastga qarab qolishi mumkin.

Gapirish — oddiy gaplarni talaffuz qilish, masalan «Ko'chada havo iliq, oftob charaqlab turibdi». Patolofiyada ko'pincha (biroq doimo emas) talaffuz buzilgan bo'ladi.

Qo'llarni ko'tarish — agar ikki qo'l bir xilda ko'tarlimasa, bu belgi kasallikka ishora qilishi mumkin.

### **Insultni davolash usullari**

Insultni umumterapevtik davolash yurak-qon tomir tizimini normallashtirish, nafas olish funksiyasini tiklash, miya shishini kamaytirish, shuningdek, qaytalanishini oldini olish va asoratlarini tuzatishga qaratilgan.

Ishemik insultda qon aylanishi va shikastlangan hudud antiagregant, antikoagulyant, neyroprotektor (kavinton va boshqalar) va nootrop (pikamilon) preparatlar orqali tiklanadi. Zarur bo'lsa, xirurgik davolash amalga oshiriladi. Miyaning normal faoliyati antioksidantlar, vitaminlar va to'qimalarda modda almashinuvini (metabolizm) yaxshilash uchun dorilar orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Gemorragik insultda angioprotektorlar, vazoaktiv dorilar tayinlandi. Gemorragik insultni davolashda eng samarali usul jarrohlik aralashuvi hisoblanadi.

### **Oqibatlari**

Insult uzoq muddatli komaga, falajlikka yoki tananing muayyan qismlari mushaklarining pareziga olib kelishi mumkin. Insult aql va xotirani yo'qotishga olib keladi. Og'ir insult bemorning o'limiga sabab bo'lishi mumkin.

### **Insultni oldini olish**

Insultning oldini olish qon bosimini muntazam ravishda o'lchash orqali amalga oshiriladi. Gipertoniya bilan og'rigan kishilar ayniqsa ehtiyyotkor bo'lishlari va

shifokorning buyurgan dori-darmonlarni qabul qilish, muntazam jismoniy mashqlar bajarish va ovqatlanishga cheklovlar kiritish kabi barcha tavsiyalariga amal qilishlari kerak. Chekishni to’xtatish va qonda qand darajasini nazorat qilish kasallik rivojlanishi ehtimolini kamaytiradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Akilov X.S., To'xtasinova M.R. Nevrologiya. O'zbekiston tibbiyot nashriyoti, Toshkent, 2021.
2. Gafurov B.G'. Ichki kasalliklar propedevtikasi. Toshkent, 2020.
3. Harrison's Principles of Internal Medicine, 20th Edition. McGraw Hill Education, 2018.
4. World Health Organization (WHO). Stroke Fact Sheet. 2022. <https://www.who.int>
5. American Stroke Association. Understanding Stroke
6. Damulin I.V. - Neyrologiya va neyroxiturgiya asoslari. Moskva, 2019.
7. Siddiqova M. Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari. Toshkent tibbiyot akademiyasi, 2023.
8. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi materiallari va klinik protokollari, 2024.